# MELAZMANI DAVOLASHDA TRANEKSAMIK KISLOTANING INTRADERMAL MIKROINJEKTSIYALARI BO'YICHA RANDOMIZATSIYALANGAN KLINIK-DERMOTOSKOPIK TADQIQOT

**Nazarova Sh.O.**
Osiyo Xalqaro Universtiteti Tibbiyot fanlari kafedrasi stajor o'qituvchisi

**Kirish.** Melazma osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan kosmetik muammo hisoblanadi. Hozirda turli xil davolash usullari qo'llanilmoqda, ammo to'liq qoniqarli davolash usuli hozirgacha topilmagan. Traneksamik kislota (TA), plasminogen aktivatorining ingibitori sifatida, ultrabinafsha nurlar sabab bo'ladigan giperpigmentatsiyani samarali davolaydi.

**Materiallar va usullar:** Melazma bilan kasallangan 15 ayol tanlandi va dermoskopik tarzda epidermal, dermal va aralash tiplarga bo'lib olindi. Mahalliy og'riqsizlantirish qo'llangandan so'ng, yuzning chap yoki o'ng tomonidan tasodifiy tanlab, TA inyektsiyasi qilindi. Har bir melazma joyiga 0.05 cc TA (4 mg/mL) intradermal tarzda 1 sm intervallar bilan 1 ml inyektor va 30-G.li igna yordamida kiritildi. TA ning terapevtik dozasining yuqori chegarasi bo'lgan 8 mg dan oshmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan ishlanildi. Inyektsiyalar har hafta 12 hafta davomida takrorlandi. Barcha bemorlarga qat'iy quyoshdan himoya qilish tavsiya qilindi. Klinik tadqiqotchi Melazma Hududi va Og'irligi Indeksi (MASI) yordamida boshlang'ich va 4, 8 hamda 12 haftalarda natijalarni baholadi. To'rtta hudud —peshona, o'ng yonoq sohasi, chap yonoq sohasi va iyak— uch o'zgaruvchi farq bo'yicha baholandi: umumiy qamrov foizi (A), macula rangining to`qlik darajasi (D) va Homogeniya-bir xillik ton darajasi (H). Shuningdek, dermotoskopiya ham qo'llanildi. Obyektiv baholashdan tashqari, qoniqish darajasini o'lchash uchun subyektiv hayot sifati so'rovi ham o'tkazildi.

**Natijalar:** 15 ayoldan 12 tasida MASI ko'rsatkichlari boshlang'ichga nisbatan kamaydi; 4 haftada ahamiyatli bo'lmagan, 8 va 12 haftalarda esa sezilarli kamayish kuzatildi. Epidermal tipda eng katta yaxshilanish, undan keyin aralash va dermal tiplarda kuzatildi. Subyektiv qoniqish sezilarli oshdi. To'rt bemorda 14 haftadan so'ng qaytalanish kuzatildi. Tadqiqot davomida hech qanday sezilarli nojo'ya ta'sirlar qayd etilmadi.

**Xulosa:** Ushbu natijalarga asoslanib, traneksamik kislota intradermal mikroinyektsiyalari melazmani davolash uchun yangi, samarali va xavfsiz terapevtik usul sifatida taklif qilish mumkin va yana bu usul ustida kattaroq tadqiqotlar o`tkazish kerak deb hisoblaymiz.